

Хоризм. Теғис

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE TECHNICAL UNIVERSITY
named after ISLAM KARIMOV



Ministry of Higher Education,
Science and Innovations of
Uzbekistan



Tashkent State Technical
University named after Islam
Karimov



AUEZOV
UNIVERSITY
1943

South Kazakhstan State
University named after
M. O. Auezov



EGE ÜNİVERSİTESİ
Güneş Enerjisi Enstitüsü

Asia International
University



Khoja Akhmet Yassawi International
Kazakh-Turkish University



Belarusian State
Technological University




Kimyo International
University

*Актуальные проблемы и инновационные технологии в области естественных наук
Международная научно-практическая конференция*

*Current problems and innovative technologies in the field of natural sciences
International scientific and practical conference*

*Tabiiy fanlar sohasidagi dolzarb muammolar va innovatsion texnologiyalar
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*

Materiallar toplami



TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
"UMUMIY KIMIYO"
KAFEDRASI

4-5 aprel 2024. Toshkent

noodatiy testlardan foydalanish	
G.I.Sapayeva Analitik kimyo fanini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish	526
X.N. Xasanova. Kimyo darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga asoslangan topshiriqlardan foydalanish	527
Z.U Ishmanova Analitik kimyo fanidan o'qitsining metod va vositalari	529
A.T. Julboyev *, M.M. Sultonov*, B.N. Babayev ** Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitish metodikasi	531
Н. Г. Валеева Развитие профессиональной компетентности у студентов и использование современных образовательных технологий	532
Z.N. Yulchiyeva F.L. Xamidullayev O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.	534
Qo'chqorov Sh.B. Kimyoviy elementlarning davriy jadvali mavzusini o'qitishda interaktiv simulyatorlardan foydalanish	536
Temirov.F "Variativ sinflarda kimyo fanini o'qitishning samaradorligi: Buxoro shahar 27-maktab misolida"	540
Rashitova Sh.Sh. "Tushunchalar tahlili "usuli yordamida VI guruh elementlarini o'rganish.	542
Dexkanova N.Sh. Dexkanov A.Sh. Mamlakatda o'z kimyosanoat iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion - investitsion faoliyatni takomillashtirish	544
Adizova H.R. O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash muammosi	547
Mexmonxonov M.M., Abdullayeva F.Q., G'ulomov R.K., Ziyayev M.A., Xaydarova D.R., Abdullayev Sh.V. Phlomoides isochila o'simligining uchuvchan komponent tarkibi va biologik faolligi	548

amalgama bo'lish mumkin.

O'ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH VA QAYTA ISHLASH MUAMMOSI

Adizova Hamida Raximovna, kata o'qituvchi.
Buxoro Davlat universiteti

“Yoshligimizdan bilamizki, ota-onalarimiz hovlini, atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o'nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan.

Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur. Prezidentning 2019 yil 17 apreldagi qarori bilan, «2019–2028 yillarda O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi» tasdiqlangan. Unda, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, chiqindilarni olib chiqib ketish tariflari iste'molchilar tomonidan chiqindilar saralab yig'ilganini inobatga olib, pasaytirilgan holda belgilanadi. Saralangan chiqindi turi, xususan keng tarqalgan plastikni qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Plastikdan granula olinib, ikkilamchi xomashyoga aylanadi. Mazkur xomashyodan ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkin.

Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko'chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko'rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Axir, muqaddas kitoblarimizda ham “Poklik iymondandur” deyilgan. Nega bu masalada ommaviy axborot vositalari, mahalla faollari bong urmayapti? Qani nuroniylarimiz, jamoatchiligimiz?

Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Mahallada, ko'chalarda chiqindi tashlagan kishini ko'rganda “bu ishingiz noto'g'ri bo'ldi”, deyidigan muhitni shakllantirishimiz, odamlarni bunga o'rgatishimiz kerak. Bu – hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir”, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Tahlillarga ko'ra, deyarli barcha davlatlarda qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga har yili bir foizga ortib bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy o'sish hisobiga bu ko'rsatkich 7 million tonnaga etib, yiliga 2 %dan o'smoqda. Lekin ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas. Misol uchun, Qoraqalpog'istonda 10%, Farg'ona va Qashqadaryoda 20 % chiqindi qayta ishlanadi, xolos. 781 ta mahallada chiqindilarni olib chiqish masalasi hal etilmagan. Aholining bu sohadagi xizmatlar bo'yicha debitor qarzdorligi ham ko'p. Tibbiyot va ta'lim muassasalari, bozorlar uchun 19 ming dona chiqindi konteynerlariga ehtiyoj bor.

Qurilish chiqindisi poligonlari tashkil qilinmay, ular yo'l, dala yoki daryo bo'ylariga tashlab ketilmoqda. O'tgan yili 4 mingta holatda qurilish chiqindilari noto'g'ri joyga tashlab ketilgani

konteynerlar o'ratish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Buxoro shahridagi "Maxsustrans" korxonasi transformatsiya qilinib, uning negizida davlat-xususiy sheriklik korxonasi tashkil etiladi. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, maishiy chiqindilarga to'lov undirishning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi.

Organik, qurilish va tibbiyot chiqindilarini utilizatsiya qilishning xavfsiz tizimini yaratish zarurligi qayd etildi. "Bu sohani yil sayin takomillashtirib borish kerak, chunki yil sayin yangi muammolar paydo bo'ladi", dedi SHavkat Mirziyoyev. Chiqindi tushunchasi bugungu kunda ikkilamchi resurs sifatida tashkil etiladi. Bu degani, chiqindi bo'lib to'plangan narsa aslida biror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qayta ishlashga yaroqli xom ashyodir. Chiqindilarni qayta ishlashga texnik va texnologik imkoniyatlar ularni to'liq qayta ishlash imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda Respublikamizda ko'plab chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyati natijasida qog'oz, metallom, plastmassa va PET-butilka kabiarni yig'ish va qayta ishlashda ijobiy o'zgarishlar mavjudligini e'tirof etish mumkin. Ammo ularni saralangan holatda to'plash asosiy muammodir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon chiqindilar hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi chiqindilarning 85 %ni qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Ayrim mamlakatlarda chiqindilarni alohida yig'ish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada qog'oz, plastic, alyuminiy kabi xom ashyolarning kata qismi qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonning ekomuhotga ijobiy ta'siri juda kata.

Chiqindilarni qayta ishlashga energiya va xom ashyolarni sezilarli darajada tejaydi. Aytish joizki so'nggi yillarda uyda ishlatiladigan tovarlardan chiqayotgan chiqindilar inson hayotida nisbatan xavflisi 45 % ni tashkil etadi. Bular batareykalar, bo'yoqlar yog' va bo'yoqni erituvchilar, pestisidlar, tarkibida fosfor bo'gan elementlar flyorissiyent lampalar va hokazo. Axlatxonaga tashlangan bunday chiqindilar yer usti va yer osti suvlarini zaharlaydi, inson salomatligiga xavf tugdiradi.

PHLOMOIDES ISOCHILA O'SIMLIGINING UCHUVCHAN KOMPONENT TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGI

Mexmonxonov Murodulloxon Maxsudxon o'g'li¹, Abdullayeva Feruza Qambaraliyevna¹,
G'ulomov Rustamjon Komiljon o'g'li, Ziyayev Mavlon Abdulmajitovich, Xaydarova Dilrabo
Raximjonovna, Abdullayev Shavkat Vohidovich¹

1-Namangan Davlat Universitet

Annotatsiya. Ushbu maqolada phlomoides isochila o'simligi haqida va efir qismidan ajratib olingan moddalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Qurama va Chotqol, *Phlomoides isochila*, GSX-MS, *Phl. codonantha*, *Phl. urodonta*, *Phl. speciosa*, *Phl. integriol*, *Phl. nuda*, *Phl. ostrowskiana*, *Phl. ebracteolata*, *Phl. Brachystegia*.

Kirish.